
Farg'ona shahrida futbol festivali o'tkazildi

Bugun Farg'ona shahridagi 38-umumta'lim maktabida 2010-2011 yilda tug'ilgan qizlar o'rtasida sportning mini-futbol turidan musobaqa o'tkazildi. Tadbirni maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri Nargizaxon Irgasheva ochib, mamlakatimizda, xususan Farg'ona shahrida sportga qizlarni jalb etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida to'xtalib o'tdi. Shuningdek, musobaqada ishtirok etayotgan jamoalarga omad tiladi.

Mazkur musobaqada Andijon viloyatining "Xo'jaobod 1" va "Xo'jaobod 2" hamda "Ulug'nor" qizlar jamoalari kelgan bo'lsa, Farg'ona viloyatidan Farg'ona shahar, Yozovon, Toshloq tumanidan kelgan futbolchi qizlar jamoalari ishtirok etishdi.

Festival qatnashchilariga musobaqa avvalida 38-maktab o'quvchilari tomonidan tayyorlangan qo'shiq va raqslar taqdim etildi.

So'nggi natijalariga ko'ra Andijon viloyatining "Ulug'nor" tumani jamoasi 1-, Yozyovon tumani jamoasi 2-, Farg'ona shahar 38-maktabda yangi tashkil etilgan qizlar jamoasi 3-o'rinni qo'lga kiritdilar.

Tadbir so'ngida viloyatimizda qizlar futbolini rivojlantirish maqsadida tizimli ravishda musobaqalar o'tkazilishi rejallashtirildi.

2023-11-27 14:00:21